

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI
ADABIYOTSHUNOSLIK KAFEDRASI

“ O'zbek filologiyasi” ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun
IV kurs 43-guruh talabasi

Samadova Nilufarning

O'tkir Hoshimov ijodida Ona obrazi
mavzusida yozgan

KURS ISHI

Qarshi – 2016 yil

MUNDARIJA

Kirish.	
I BOB. Xarakter va milliylik.....	
II BOB. Ijodkor estetik ideali va zamon-makon masalasi.....	
Xulosa.....	
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillik tufayli o'zbek xalqi tarixida, taqdirida yangi bosqich boshlandi. El-yurt milliy qadriyatlarni e'zozlagan va rivojlantirgan holda umumbashariy mezonlar asosida yashay boshladi.

Badiiy adabiyotda tasvirlanguvchi inson qalbi va ongida ro'y berayotgan evrilish, o'zgarishlarning sir-sinoatlarini, sabab-oqibatlarini, ularning jamiyat ravnaqi, zamondosh kamolotidagi o'rnini, binobarin, shularni yuzaga chiqaruvchi yozuvchi mahoratini zug'umli siyosat va mafkura emas, umumbashariy, insonparvar mezonlar, milliy qadriyatlar tadqiq etish lozimligi bugungi adabiyotshunoslik oldiga yangi-yangi vazifalar qo'ydi. Avvalgi bosqichlarda yaratilgan asarlarni ham Istiqlol g'oyalari bilan chambarchas aloqadorlikda o'rganish adabiyotshunoslikning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qoldi.

Ona siymosi dunyodagi barcha xalqlar uchun muqaddas va mo'tabardir. Ularni birlashtirib turuvchi mushtarak fazilatlar bisyor, albatta. Lekin, ayni vaqtda, har bir xalqqa, millatga mansub ona siymosi o'z fe'l-atvori, tabiati, ichki va tashqi dunyosi, hatto, portreti bilan muayyan darajada farqlanib turadi. Ona butun bir xalq, butun bir millatning o'ziga xosligi, shakllanishi, namoyon bo'lishida alohida o'rin tutuvchi siymodir va ayni vaqtda, har bir inson kabi jamiyat, muhit, sharoitning vakili sifatida o'ziga xos bir individumdur. "Odamning qalbida qanday olijanob tuyg'ular mavjud bo'lsa, ularning barchasi avvalo onadandir".

Shu ma'noda, o'zbek xalqiga mansub ona siymosining badiiy adabiyotda tasvirlanishini, bu tasvirdagi o'ziga xosliklarni o'rganish, bu obrazni badiiy yoritishdagi yozuvchi uslubi va mahoratini tahlil etish – bu jihatdan, xarakter yaratilishiga ko'ra badiiy adabiyotimizning milliy fazilatlarini ochishda va ikkinchi jihatdan, o'zbek xalqidagi milliylikni ko'rsatishda o'ziga xos ahamiyatga egadir. Mazkur ishda Ona siymosiga uning ijtimoiy, yoxud tarbiyaviy mohiyatigina emas, balki, asosan, badiiy asarda obraz sifatida yaratilishini o'rganish nuqtai nazaridan yondoshiladi.

O'zbek adabiyotida ona obrazining go'zal va betakror namunalarini yaratgan yozuvchilardan biri O'tkir Hoshimovdir. Adib asarlarida Ona obrazi shu qadar

mustahkam va muhim o'rin tutadiki, ularsiz hatto yozuvchining yaxlit ijodini tasavvur qilish qiyin. O'tkir Hoshimov mahoratining ko'pdan-ko'p qirralari ko'pincha bevosita mana shu obrazning yaratilishi va yoritilishidagi muvaffaqiyat bilan tutashib ketadi. U yoki bu asardagi joziba, asar milliyligini belgilovchi fazilatlar nuri ham, mohiyatan ana shu obrazga aloqador bo'lgan ziyodan o'sib chiqadi. Demak, O'tkir Hoshimov ijodidagi Ona obrazini o'rganish adib mahoratini belgilovchi yetakchi omillardan birini o'rganishdir.

Shunday ekan, Ona obrazi tadrijini tadqiq etish; muallif ijodiy niyatlarining badiiy tajassumini, obrazlar tizimi hamda milliy qadriyatlar, milliy ruhiyatlar, milliy qiyofalar talqinini yaxlitlikda ochib berish; bir ijodkor siymosidagi muayyan bir muammo talqini orqali o'zbek adabiyotining ayrim milliy o'ziga xosliklarini ko'rsatish mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

I BOB. Xarakter va milliylik

Bizga ma'lumki, mustaqillikka qadar milliy adabiyotimizning o'ziga xosligini sof-xolis va siyosatdan holi ilmiy nuqtai nazardan yoritish imkoniyati yo'q edi. Mustaqillik bergan fikr erkinligi tufayli milliy adabiyotga doir muhim muammolar, jumladan, milliy xarakter muammosi borasda fikr yuritish hayotiy zaruratga aylandi. Lekin milliy xarakter muammosini ilmiy asoslash, bu tushunchaga ta'rif berish masalasi o'zbek adabiyotshunosligida haligacha to'liq hal etilmagan.

Akademik I.Sultonning "Adabiyot nazariyasi" kitobida adabiy asar va xarakter, xarakter tasviri va estetik ideal, xarakter va badiiy to'qima kabi umumnazariy masalalar sho'ro adabiyotshunosligi nuqtai nazaridan yoritilgani holda, xarakterning milliy o'ziga xosligi haqida biror fikr bildirilmaydi. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi tomonidan tayyorlangan II jildlik "Adabiyot nazariyasi"da xarakterning umuminsoniy, umumfalsafiy jihatiga diqqat qaratiladi. Romantizm estetikasidagi xarakter talqinlariga umumiy ta'rif beriladi. O'zbek adabiyotidagi badiiy xarakter ko'rinishlari, ko'proq ijtimoiy, siyosiy, mafkuraviy prizmalarda o'rganiladi.

Mustaqillik davrida milliy qahramon, milliy xarakter bilan bog'liq qator tadqiqotlar amalga oshirildi. Ularning aksariyatida, bugungi imkoniyatlarga qaramasdan, ushbu muammolar yetarlicha oydinlashmagan. Filologiya fanlari nomzodi G.Imomova "Tipik milliy xarakterlar yaratishda badiiy nuqtning roli" mavzuidagi ilmiy izlanishlarida milliy xarakter muammosini ko'proq qahramon, badiiy nutqi va ijtimoiy muhit nuqtai nazaridan o'rganadi. "Milliy muhit bilan milliy nuqtning o'zaro bog'liqligi o'zaro muvofiqligi haqqoniy badiiy asarning bosh mezoni hisonlanadi", degan anchayin torroq fikrni o'rtaga tashlaydi. M.Hamidovanning tadqiqotida bevosita milliy qahramon muammosi qo'yilgan. Lekin tadqiqotchi Sh.Xolmirzayev ijodida milliy xarakter talqinini yoritish bilan cheklangan.

Umuman, biz keltirib o'tgan va keltirishda zarurat sezilmagan barcha izlanishlarda o'zbek adabiyotining milliy xususiyatlari bilan bog'liq nazariy tushunchalar muayyan ta'rif-tavsifga ega emas. Demak, milliy xarakterning o'zbek hikoyachiligidagi o'ziga xosliklari haqida to'g'ri tasavvurga ega bo'lishimiz lozim.

Falsafaga doir adabiyotlarda xarakter insonning ruhiy o'ziga xosligini ifodalovchi, irsiy belgilardan holi bo'lmagan va ijtimoiy-ma'naviy muhit tasvirini o'zida mujassam etgan tushuncha, deb qaraladi. Xarakter ijtimoiy hayotda insonning atrofdagilarga, o'ziga, narsa va hodisalarga bo'lgan munosabatiga qarab belgilanadi va baholanadi. Qisqa qilib aytganda, "Xarakter tabiatida ijtimoiy-psixologik omillar yetakchilik qiladi".

Inson xakteri va badiiy adabiyot masalasidagi bizga ma'lum eng salmoqli fikrni Aristotelda uchratamiz. U badiiy xarakter uchun muhim bo'lgan to'rt jihatni alohida ta'kidlaydi:

1. xarakter yaxshi (ya'ni, ijobiy bo'lishi kerak...
2. xarakter o'ziga xos bo'lishi kerak...
3. xarakter haqqoniy (hayoliy, real) bo'lishi kerak...
4. xarakter izchil bo'lishi kerak..."

Bevosita milliy xarakter muammosiga bag'ishlangan tadqiqotlar, yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'zbek adabiytoshunosligida ancha o'rganilgan masala. Biroq biz tahlilga tortadigan adiblar ijodida milliylik masalasi bevosita tadqiq qilingan emas.

Umuman, badiiy adabiyotda milliy xarakter muammosi haqida gap ketganda, eng avvalo, buyuk yozuvchimiz Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" romani qahramonlari ko'z o'ngimizga keladi.

Misol uchun, romandagi Otabek va Kumush obrazlarini olaylik. Birinchidan, Otabek Kumushlar tabiatidagi rostgo'ylik, rahmdillik, sabrlilik, vafodorlik, kamtarlik kabi xususiyatlar. Mazkur obrazlar xalqchilligini ta'minlagan. O'zbek kitobxoni Otabek va Kumushlar timsolida haqiqiy o'zbek, haqiqiy Sharq farzandlarini ko'radi. Asar go'yo xalq kitobi kabi ommalashib ketganligi fikrimizning dalilidir. Asar ana shu milliyligi tufayli ham

umuminsoniylik kasb etadi. Boshqa millatlar sevgisiga sazovor bo'ladi. P.Qodriyning "Otam haqida" deb nomlangan kitobidagi ushbu satrlar fikrimizga dalil: " Men siz yaratgan qahramonlarni siz sevgan kabi sevib qoldim. Axir, Otabekni sevmaslik mumkinmi? Otabek kabi yigitlar hozirgi kunimizda ham ko'p-ko'p bo'lishini istardim" (Ukrain qizi Lyudaning 1961-yili Qodiriyga yozgan maktubidan). Uchinchidan Otabekning vatanparvarligi, vatan ozodligi yo'lidagi sidqidildan kurashi bizni lol qoldirdi. Qalblarda vatanparvarlik olovini yoqadi. Otabek xarateridagi bu jihat jadidlar harakati, jadidlar xarakteri bilan chambarchas bog'lanib ketadi. Shu bilan birga, Qodiriy estetik idealini to'laligicha o'zida ifoda etadi. To'rtinchidan, Qodiriyning "O'tgan kunlar" romani o'zbek xalqining milliy mustaqillik yo'lidagi azaliy orzularining badiiy ifodasi ekaniga shubha yo'q. Beshinchidan, Otabek va Kumushlar ichki dunyosi tasviri milliy xarakterning o'zbek adabiyotidagi yuqori cho'qqisi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Yuqoridagi fikrlardan ayonki, milliy xarater yaratish tajribasi bizning dastlabki romanimizdayoq yuqori darajada namoyon bo'ldi. Jahon adabiyotshunosligi tomonidan ishlab chiqilgan mezonlarga to'la muvofiq kelgan. Bunda davrning, jadidchilik deb tan olingan milliy-ozodlik harakatining roli katta bo'lgan.

O'tgan asrning 60-yillari uchun ham adabiyotda milliy xarakterlar yaratish an'anasi favqulodda voqea edi yoinki milliy badiiy tafakkurdagi burilish edi. Shu nuqtai nazardan o'sha davr o'zbek she'riyatida Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Rauf Parfi nomlari bilan bog'liq yuz bergan yangilanishga qisman olinsa, nasrimizdagi yangilanishi jarayonlari O'lmas Umarbekov, Uchqun Nazarov, Shukur Xolmirzayev, O'tkir Hoshimov nomlari bilan bog'liqdir. Muhimi, o'sha o'ttiz-qirq yil burungi tarixiy evrilishlar mualliflari adabiyotimizning ko'rkiga ko'rk bo'lib qo'shilgan ko'plab asarlar yaratdilar. "Ikki eshik orasi", "Tushda kechgan umrlar", "Dunyoning ishlari", "Nur borki, soya bor" asarlari O'tkir Hoshimovning epik ko'lamdagi salodiyi namunalariga aylandi. "Dunyoning ishlari"da o'zbekning mushtipar, mushfiq va jafokash Onasiga tirik haykal qo'yildi. Uning biror novellasi sahnasini befarq o'qib bo'lmaydi. Kitobxon qavmi

borki, ushbu asar mutolasiga kirishdi deguncha o'z bolaligi, go'daklik xotirasiga muhrlangan volidasini eslaydi. Bu eslash har qanday bag'ri tosh odamning ham ko'nglini halimlashtiradi, uni ezgu tuyg'ular girdobiga tortadi.

Asarning ikkinchi e'tiborli jihatida shundaki, yozuvchi odamlarni Onaga bo'lgan munosabatidan kelib chiqib kimligini qanday insonligini ko'rsatadi. Qissaning uchinchi yo'nalishini asar qahramoni "Men" idagi evolyutsiya tashkil etadi. Bu "Men" dunyoni asosan ona timsoli orqali idrok etib ulg'ayadi, neki voqea-hodisa bo'lsa ona konteksida qabul qiladi va shu kontekstdan kelib chiqib ularning bahosini beradi. Do'st xiyonatiga uchragan qahramonning iztirobga tushganini eslaylik. Vaziyat shu qadar og'irki, azbaroyi osmondagi oy ham xoindek, uning nurlari xiradek, yulduzlar xoinlarcha ko'z qisayotgandek, shamol xoinona qiqirayotgandek tuyuladi. Bir so'z bilan aytganda, qahramon uchun dunyo zimiston uning nazarida bu yorug' olamda yaxshilik yo yoqimli narsaning o'zi qolmagan. Mana shunday depressiv holatdan uni faqat ona faqat onadagi bag'rikenglik, kechirimlilik xalos etishi mumkin.

Onadagi kechirimlilik, bag'rikenglik o'g'ilning mushkulini osonlashtiradi. "Dunyoning ishlari"da kashf qilingan Ona obrazi O'tkir Hoshimovning keyingi asarlarida ham boshqa zamon va boshqa makonlarda o'quvchining ko'z o'ngida gavdalanadi. Chunonchi, "Tushda kechgan umrlar"dagi Qurbonoy xola ko'p jihatdan qissadagi Oyi obrazini mantiqan davom ettiradi. "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasidagi Umri onaning mushfiqligi, hokisorligi ham bu ikki asardagi onadagi fazilatlarda deyarli farq qilmaydi. Turli asarlardagi turli obrazlarga bunday yondashuv to'g'ri yo noto'g'riligini butkul boshqa masala, lekin bu o'rinda gap boshqa yoqda. "Dunyoning ishlari"da Onaning quyma obrazini yaratishga muvaffaq bo'lgan muallif endi boshqacha onani tasavvuriga sig'dirolmasligi aniq edi, binobarin basharti u onani boshqacha tasvirlasa go'yo o'sha Onaga xiyonat qilayotgandek ona timsoliga putur yetkazib qo'yayotgandek ahvolga tushardi. U adib O'tkir Hoshimovning onasi, o'zbekning onasi edi.

O'tkir Hoshimovning "Cho'l havosi" asari qahramon xatlaridan tashkil topgan. Garchand g'oyaviy mundarijada sotsialistik realizm sezilib tursada, qissa shakliy izlanishlar yo'lidagi dastlabki qadam bo'lib, ijodkor uslubi shakllanishida muhim o'rin tutadi. Keyinchalik badiiy shakl bilan falsafiy uyg'unlik adib ijodiy manerasining yetakchi xususiyati darajasiga ko'tariladi. Ona obrazini yaratishda bosqichma-bosqich bosib o'tilgan "Dunyoning ishlari" qissasi, "O'zbeklar", "Urushning so'nggi qurboni" hikoyalari, yirik polotnodan tashkil topgan "Ikki eshik orasi" romanidagi qator onalar obrazi va ularning milliy xarakterini yaratishdagi lirik ifoda va epik ko'lam uyg'unligining yetakchi uslubiy yo'nalish tariqasida shakllanganini ko'ramiz.

"Odam ovozi" hikoyasida ona qiyofasi asosiy planga chiqadi. Matbuotda jiddiy bahs-munozaralarga sabab bo'lgan bu asar bir qarashda, sotsialistik realizm metodiga tayanib yozilgandek taassurot qoldirsada, unda hukmron mafkura qoliplariga to'g'ri kelmaydigan jihatlar oz emas. Adabiyotshunos olim M.Sultonova yozadi: "Mastura xolaning (hikoya qahramoni – D.O.) yolg'iz qolishga faqat o'zi aybdor. Axir Yevropa adabiyotida yolg'izlik fojiasi katta sotsial fojia sifatida talqin qilinayotgan bir pallada bizda yolg'izlik tushunchasining nisbiy ekanligi, bunday fojialar chiqib kelishi mumkin emasligini qattiqroq ta'kidlash ham mumkin edi". Olima fikrlarida ijtimoiy davr ta'siridagi mafkuraviy talab yaqqol ko'zga tashlanib turibdi. Chunki sovetlar jamiyatida "inson o'zini mutlaqo yolg'iz his etmaydi! Chunki sovetlar jamiyati kollektiv jamiyat" – degan ideya hukmron edi. 1972-yilda yaratilgan "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasi lirik ifoda va epik ko'lam mushtarakligini yorqin aks ettiradi. Hikoya ikkinchi jahon urushining insoniyat taqdiriga, jumladan, millat psixologiyasiga ko'rsatgan ta'sirini aks ettiradi. Asosiy qahramon – Umri xolaning ikki o'g'li bor. Kattasi – Shoikrom o'z oilasi bilan alohida yashaydi. Kichik o'g'li Shone'mat dardga chalingan. Tabib unga qo'y suti buyurgan, lekin Ona o'z farzandiga sut olib berishga qodir emas. Asar davomida kuzatiladigan tushkun kayfiyat ustuvorligi alamzada o'g'ilning qarori yordamida fojiaiy nuqtaga ko'tariladi. Shu o'rinda Umri xola va Shoikrom xatti-harakatlaridagi o'xshashlik kitobxonni

ajablantirmaydi. Ona o'g'rilik qilish katta gunoh ekanini o'ylab ko'rmaganidek, farzand ham birovning joniga qasd qilish salbiy illat ekanini tushunishni istamaydi. Asosiy aybdor – urush va uning salbiy asoratlaridir. Shu o'rinda fransuz mutafakkiri D.Didroning "xarakter tipik sharoit bilan belgilanadi", - deganida naqadar haq ekanligi oydinlashadi. Darvoqe, tipik manzara jamiyat ma'naviy mezonlariga zidlik kasb etsa ulkan fojialar keltirib chiqaradi. Shu tarzda ijodkorning urush va uning oqibatlariga ruhiy munosabati shakllandi. Muallif asar to'qimalariga yoyilib ketgan fojiaiviy ruhni yuqori bosimda tutib turadi. Ayniqsa, Ona qiyofasini shakllantirishda yozuvchi lirizm oqimini bir qadar kuchaytiradi. Sentimental kayfiyat quyuqligi lirik ifodaning ustuvorligini bo'rttiradi.

Matnda lirik ifoda va epik maydon yurishini ketishi faqat tuyg'u va ong o'rin almashnuvlari bilan izohlanmaydi. Darhaqiqat, lirik ibtido va epik ko'lam o'rtasidagi uzviy robita asarning badiiy mantig'idan kelib chiqadi.

Yozuvchining hikoyalaridan keyingi qissalari, romanlar unga shuhrat keltirdi. Sekin-asta uning aksar asarlarida Ona obraziga jiddiy ravishda qancha hajm ajratilishi emas, hajmdan qat'iy nazar asardan asarga Ona obrazining mohiyatidagi salmoq chuqurlashib, teranlashib borayotganida, bu obrazga adibning turli rakurslar orqali yondashayotganida edi.

O'tkir Hoshimov ijodida "Dunyoning ishlari" qissasi adibning ona obrazini yaratishdagi kulminatsion nuqtai bo'ldi, deyish mumkin. Zero, mazkur qissa o'zbek kitobxonlari va adabiyotshunoslarigina emas, xorij kitobshinavandalari qalbini ham zabt etdi. Ustoz adib Said Ahmad "Ijod va jasorat" maqolasida qissa haqida shunday e'tirof etdi: "Dunyoning ishlari" asarini qissa emas, doston deb atashni istardim. U qo'shiqday o'qiladi. Uni o'qib turib, o'z onalarimizni o'ylab ketamiz. Shu mushfiq, shu jafokash onalarmiz oldidagi bir umr uzib bo'lmas qarzlarimizning aqalli bittasini uza oldikmi, degan bir andisha, bir savol ko'z oldimizda ko'ndalang turib oladi". Adabiyotshunos A.Rasulov shunday deb yozadi: "Dunyoning ishlari" poetikasining alohida sinchkovlik bilan o'rganish zarur. Asarda yozuvchi mahorati, topqirligi, qissa janri tabiatiga kiritgan yangiligi, eng kichik personaj mohiyatini ham bir turtki, bir imo, harakat bilan ochib

yuborganligi aniq ko'rinadi. Bir qarasangiz, "Dunyoning ishlari" sentimental asar emas. Mazkur qissaning ijobiy, gumanizm targ'ibotchisi sifatida xislat va fazilatlari haqida taqriz va maqolalar e'lon qilishdi. Qissa kompozitsiyasiga e'tibor bersak, asar muallif ta'kidlaganidek, hajm jihatdan xilma-xil, katta, kichik, o'rtacha muqaddimasida shunday deydi: "Bu qissa katta-kichik novellalardan iborat. Biroq ularning barchasida men uchun aziz odam – Onam siymosi bor. Bundagi odamlarning hammasini o'z ko'zim bilan ko'rganman. Faqat ba'zilarining ismi o'zgardi, xolos. Bu odamlarning qismati ham qaysidir jihati bilan Onamga bog'langan". Demak, bu qissa yaratilish uslubi jihatidan Abdulla Qahhorning "O'tmishdan ertaklar", Nazir Safarovning "Navro'z" avtobiografik xarakterdagi asarlariga o'xshab ketadi. Qissada adibning onasi Poshsho xola obraziga hayotiy asos bo'lib, uning atrofiga chamasi 20 ga yaqin onalar obrazi bog'lanadi. Lekin barcha voqealar va onalar siymosi Poshsho xola obrazi bilan bir nuqtada kesishadi.

"Dunyoning ishlari" qissasidagi bosh qahramon Ona xarakteri turadi. Fikrimizni dalillash maqsadida asarga murojaat qilamiz. Qissadagi hikoyalar davomida muallif qahramon tarzida o'zini o'zi koyiydi. Ona qadriga yetmaganlikda, uning mehribonliklarini tushunmaganlikda, farzandlik burchni yaxshi ado etolmaganlikda ayblaydi. Bu iztiroblar, ayniqsa, "Xiyonat" hikoyasida yaqqol ko'zga tashlanadi. Yozuvchi bu hikoyada muallif nutqini, uning ruhiy holatini tabiat bilan qiyoslashtirib beradi. "Xiyonat" hikoyasida O'tkir Hoshimov o'zining bolalikda, o'quvchilikda, talabalikda boshidan kechirgan sarguzashtlarini ta'sirli qilib ifoda etadi.

"Student edim, farishtadek pokiza qizni sevardim. Bizning o'z skameykamiz, "o'z" anhorimiz bo'lardi", - deydi muallif (farzand – G.I.) Keyin qiz undan o'zini olib qochadigan, ko'zlarini yashiradigan bo'ldi. Yigit hamma sirlarini eng yaqin o'rtog'i, do'stiga aytadi. Do'sti esa indamay yuravering, bir kuni o'zi bosh egib keladi deydi. "Do'stim to'g'ri aytardi, - deydi yana muallif (farzand), men endi oqshom sayllari o'rniga qiroatxonada o'tiradigan bo'ldim".

"Iliq yoz oqshomi edi. Osmonda to'lin oy pokiza nur sochar, yulduzlar xushchaqchaq porlar, bog' ustida shabada shodon shivirlar edi. Suv bo'yidagi

o'zimizning skameykaga yaqin keldim. Keldim-u juda tanish, juda jarangdor kulgini eshitib, taqqa to'xtadim... Xuddi o'sha joyda yaqindagina men bilan o'tirgan skameykada o'sha qiz o'tirardi. Mening o'rnimda esa... do'stim o'tirar. Qizning yelkasidan quchib, ko'ksiga tortar, qiz esa undan o'zini olib qochgandek bo'lar, mening bag'rimda qanday kulgan bo'lsa, uning quchog'ida ham shunday g'amza bilan kular edi..."(29-bet).

Endi muallif (farzand)ning bir yo'la ham muhabbatidan, ham do'stidan ayrilib turgan ruhiy holati, qalb iztirobiga e'tibor qiling:

"Eshikdan "Assalomu alaykum!" deb kirgan do'stimni, bilmayman, sakrab turib basharasiga musht tushirdimmi yo ustimga egilganida urib yubordimmi... Shunisi esimdaki, u so'lagi sachrab ketgan labini artib qandaydir, g'ayritabiiy, behayo iljaygancha harom nurini sochar, xiyonatkor yulduzlar xoinlarcha ko'z qisishar, xiyonatkor shamol xoinona qiqir-qiqir kular edi" (29-30-bet).

Ma'lumki, yozuvchilarimiz go'zal qizlarni, nafis narsalarni oyga, yulduzga o'xshatib kuylaganlar. Klassik adabiyotimizda yozuvchilar bu detallardan qahramonlarning ichki dunyosini ochishda, ularning ruhiy holatlarini tasvirlashda foydalanganlar. M.Sholoxovning "Tinch Don" epopeyasida shunday tasvirga duch kelamiz: "...Garmsel ko'targan chang-to'zon orasida jar ustida quyosh ko'tarilmoqda edi. Uning nurlari Grigoriyning oppoq sochlarini kumushday yiltiratar, murdanikiday oqarib ketgan vahimali suratdek qotib qolgan yuzini yoritardi. Grigoriy og'ir uyqudan uyg'ongandek boshini baland ko'tardi-yu, qop-qora osmon bilan ko'zini qamashtiruvchi yorqin quyoshning qora gardishini ko'rdi".

Demak, Aksinyadan judo bo'lib, uni qabrga qo'yib kelayotgan Grigoriyning ko'ziga quyosh qop-qora bo'lib ko'rinadi. Bu tasvirda yozuvchi M.Sholoxov Grigoriy obrazini, uning o'sha paytdagi ruhiy holatini, kechinmasini yorqinroq ifodalash maqsadida quyoshga qora rang beradi, holbuki quyosh qora emasligi kitobxonga ayon.

O'.Hoshimov "Dunyoning ishlari" qissasida muallifning ichki dunyosidagi keskin o'zgarishni aniq ko'rsatish maqsadida oyni, yulduzni ikki xil holatda tasvirlab,

psixologik ma'noni kuchaytiradi. Sevgisi musaffo va beg'uborlikda "oy uning mazdida pokiza va nur sochar", "yulduzlar xushchaqchaq kular edi". Endi-chi kayfiyatida to'satdan o'zgarish ro'y bergan holatda esa "oy harom nur sochar", "yulduzlar xoinlarcha ko'z qisar" edi. Shu hikoyada muallif nutqi boshqa hikoyalar nutqidan har bir voqeani teran his qilishi, shoirtabiatligi, ijodga moyil shaxs bo'lganligi uchun alohida ajralib turadi.

Yozuvchi ijodiga xos lirik tarona uning "Dunyoning ishlari" qissasida eng baland pardalarda jarangladi. Bu asar Ona haqidagi, Ona qalbining cheksiz sahovati haqidagi o'ziga xos qasidadir.

"Dunyoning ishlari" bir qarashda avtobiografik asar, yozuvchining o'z bolalik yillari, yoshlik, yigitlik davri xotiralari, onasi, qarindosh-urug'lari, tanish odamlar hayotidan voqe etadi. Unda xilma-xil voqealar hikoya qilinadi, biroq asar markazida Ona obrazi turadi. Asardagi ona farzandi, farzandi oromo, baxti uchun jonini, jahonini berishga tayyor ming-minglab onalarimizning timsoliga aylandi.

Qissa zavq-shavq bilan shoirona yozilgan. "Dunyoning ishlari"ni qissa emas, doston deb atashni istardim, - deydi Said Ahmad. – U qo'shiqday o'qiladi. Uni o'qib turib o'z onalarimizni eslab ketamiz. Shu mushfiq, shu jafokash onalarimiz oldidagi bir umr uzib bo'lmas qarzlrimizning aqalli bittasini uza oldikmi, degan bir andisha, bir savol ko'z oldimizda ko'ndalang turib oladi. Qissa bizni insofga, insonni qadrlashga, hurmat qilishga chaqiradi".

Yozuvchi o'z onasining cheksiz qalb sahovatlari haqida so'z ochar ekan, ayni vaqtda uni yetarlicha qadrlay olmaganidan afsuslanadi.

Qissa bir-biri bilan uzviy bog'langan mustaqil voqeiy (bo'lib o'tgan) hikoyalardan tashkil topadi.

"Dunyoning ishlari" boshdan-oyoq nihoyatda yorqin, ajib bir milliy bo'yoqlar bilan jilolangan. Ayni paytda asar teran bir umuminsoniy, baynalminal tuyg'ular bilan yo'g'rilgan. Qissada shunday mulohazalar bor:

"Ehtimol, dunyoning bu chetida turib bir odam o'z sevgilisiga aytgan dil rozini dunyoning narigi chekkasidagi boshqa bir odam tushunmas. Ehtimol, dunyoning bu chetida turib bir odam aytgan qo'shiqni dunyoning narigi

chekkasidagi boshqa bir odam tushunmas. Ehtimol, dunyoning bu chekkasida turib bir odam aytgan oqilona fikrni dunyoning narigi chekkasidagi boshqa bir odam tushunmas. Biroq dunyoning bu chekkasida turib Ona aytgan allaga dunyoning narigi chekkasidagi go'dak bemalol orom oladi".

Ona allasining sirli-sehrli kuchini muallif avvalo Alloh so'zi – Qur'oni Karim oyatlari tilovati sadosi bilan qiyos qiladi. Qabristondagi hujra tomonidan tilovat sadosi eshitiladi, xuddi shu payt hovli tomondan ona allasi yangraydi: "Rabbano – o – o , rabbano – o – o ..." "Allayo, alla..." Hikoyachi ajib bir holatga tushadi "Bir tomonda tilovat sadosi, bir tomonda alla... Ajab, ular bir-biriga halaqit bermas, bir-birini rad etmas". Orada qandaydir sirli mushtaraklik mavjud.

Qissa muallifi onasidan alla eshitgan daqiqalardagi holatini eslab ketadi; Ona aytgan satrlar oddiy qo'shiq emas, uning ovozidan qandaydir boshqa narza, mungmi, iltijomi, tinglovchi qalbini asir etadigan ilohiy seyr borligini uqtiradi; "Keyin katta bo'lganimda ham qayerda alla eshitsam, yuragim shirin orziqish bilan talpinib ketar, nega bunaqa bo'layotganini o'zim bilmas edim" deb yozadi.

Yozuvchi dunyoning ikki chekkasida o'zi guvoh bo'lgan ikki hodisani – safar chog'i qirg'iz o'tovida qirg'iz ayol aytgan alla va olis Kislovodskda sibirlik juvondan alla eshitgan chog'dagi g'aroyib holati – yurakdagi shirin orziqish tuyg'ularini to'kib soladi. Qirg'iz va rus ayollarining o'z ona tillarida aytgan dil rozlari muallif qalbini onasidan eshitgan alla kabi tug'yonga soladi, allalaydi.

Shu tariqa yozuvchi voqea-hodisalarni shunchaki hikoya qilib bermaydi, hodisa bilan bog'liq tuyg'ularning ajib seyrini, nafosatini kitobxon qalbiga olib kirishga muvaffaq bo'ladi. Qissaning deyarli barcha boblari ayni shu ruhda bitilgan.

Milliy to'y, aza marosimi bilan bog'liq tasvirlar "Dunyoning ishlari", "Ikki eshik orasi", "Tushda kechgan umrlar", "O'zbeklar " va h.k. asarlarida batafsil uchraydi.

"Ikki eshik orasi" asarida to'y marosimi bilan bog'liq tafsilotlarga keng o'rin ajratilgan. Asrlar davomida shakllangan milliy an'ana uch qahramon tomonidan izohlanadi. Bolakayning sodda, jozibali talqini, Robiyaning ruhiy tahlil teranligi

saqlangan bayoni va Qora ammaning to'y tashvishlariga yo'naltirilgan kechinmalai marosimni turfa nuqtalardan yoritish imkonini beradi. Bu esa, o'z navbatida, xarakter qirralarini oydinlashtirish, milliy urf-odatlarining xalq hayotidagi salmog'ini kuzatsihga yordam beradi. Nutq tiplari vositasida kitobxon Muzaffarning bolalarcha soddaligi va tiniq samimiyati, Robiyaning ruhiy barkamolligi, Qora ammaga xos mehr-oqibat rishtalari bilan tanishadi. Bir tafsilotning uch talqini asar sujetini bog'lab turuvchi chiziq tarzida aniq tasavvurlar uyg'otadi.

"O'zbeklar" hikoyasida o'lim va uning badiiy talqini uch obraz mohiyatini ochib beradi. Binobarin, milliy odat – Iskandar Vahobovichning Otinoyini so'nggi manzilga kuzatish jarayonida ona-farzand-kelin munosabatlarining ma'naviy tahlili tadqiq markaziga ko'tariladi. Marosim davomida Otinoyining naqadar bag'rikeng inson bo'lganligi, ma'naviy barkamolligi ayonlashadi. Aynan qahramonning mahalla dasturxonchisi bo'lganligi, irim-sirim, udumlarni yaxshi bilganligi undagi xarakter qirralarini mantiqiy dalillaydi. Asarda epizodik holatlar Ona qiyofasini muayyan tavsiflaydi. Biroq, yo'l-yo'lakay berilgan shtrixlar obraz mohiyatini ochib berish uchun yetarli emas. Muallif qahramon vafoti bilan bog'liq hayotiy an'anaga bir necha badiiy vazifani yuklaydi. Muallif Otinoyi timsolini xarakterli tafsillar bilan ta'riflab boradi, kitobxonni ruhiy holatga tayyorlaydi.

"Tushda kechgan umrlar" romanida esa muallif marosim jarayonini o'zgacha miqyosda suratlaydi. To'g'rirog'i, to'y tafsilotlari rus millati vakili – Grisha tomonidan izohlaandi. Qahramonning kinoyaviy, istehzoli nutqi tabiiy asoslarga ega. An'analarning zamonaviy talqini yosh avlod ongiga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir o'tkazishi mumkin. Xususan, nahor oshi, qiz bazmi singari an'analar bir tomondan, ijtimoiy qatlamlarni uyshtirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, yoshlar tarbiyasiga aqidaparastlikni singdirishi mumkin. Buni yaxshi idrok etgan O'.Hoshimov milliy an'analarning gumanistik mohiyatini poetik tahlil markaziga yo'naltiradi. Obraz va obrazlararo munosabatining ma'nosini to'ldiradigan, izohlaydigan hamda tartibga soladigan chizgilar xalq sajiyasining umumiy qiyofasini gavdalantiradi.

Asarning badiiyligi ko'p jihatdan muallifning tabiat tasviridan foydalanishiga bog'liq. Ushbu maqolada O'tkir Hoshimovning "Bahor qaytmaydi" qissasidagi tabiat tasviri xususida so'z yuritiladi. To'g'ri, peyzajga munosabat har bir yozuvchida turlicha bo'lishi mumkin. Lekin ushbu qissada qahramonlar bevosita tabiat bilan hamohang hayot kechiradilar. Asar to'g'ridan-to'g'ri tabiat tasviri bilan boshlanadi: "Bo'ston qishlog'iga og'ir vazmin qadamlar bilan kuz kirib keldi. Tumanlik qo'ynida jimgina mudragan tonglar, ilk sovuq og'ushida junjikkan seryulduz oqshomlar boshlandi. Havoga yelpig'ichday qat-qat bulutlar chiqdi. Quyoshning iliq, tansiq nurlari odamlarga xush yoqadigan bo'lib qoldi. Yoz bo'yi meva tugishi dardida yashnagan bog'lar, shodon shovullagan terakzorlar hayotning mangu, beshafqat haqiqati oldida o'ychan, g'amgin bosh egdi. Sunbula tug'di. Qishloqni xalqaday o'rab oqayotgan anhor birdan tiniqlashdi. Telba to'qinlar endi jilovlanib, yuvosh bo'lib qoldi. Odamlar qilichini ko'tarib kelayotgan qishdan cho'chiganday shosha-pisha harakatga tushdilar. Kimdir chorbog'idan o'tin arraladi, kimdir qo'shnisining tom suvog'iga hasharga chiqa boshladi. Hamma yagona bir tashvish bilan, kuz tashvishi bilan turib, kuz tashvishi bilan yotadigan bo'ldi. Faqat bitta hovlida –qishloq chekkasida, shunday anhor yoqasida joylashgan hovlida sukunat hukm surar, faqat bir kishi yolg'iz o'z tashvishi bilan band edi".

Ushbu tabiat manzarasi, avvalo, voqealar bo'ladigan joy bilan o'quvchini tanishtiradi. Peyzajda qahramonni o'rab turgan muhit tasviriga keng o'rin berilishi asarning quvvatini oshirgan, voqealar bayonida uygunlikni ta'minlagan. Adib asarda peyzajni qo'llab, u orqali ma'lum maqsadni ochib beradi. Bu ham yozuvchiga xos uslubdir. U peyzajga ham ma'lum badiiy vazifalar yuklaydi. Bu vazifalar turlicha bo'lib, barchasi asar g'oyasini, yozuvchi fikrini, estetik maqsadini ochib berishga xizmat qiladi. Kuz tasviri kitobxonga iliq kayfiyat bag'ishlaydi. Bo'ston qishlog'iga kirib kelgan kuzning og'ir vazmin qadami bo'lajak voqealar rivojiga ishora, tumanlikdagi tonglar voqealarining turli tarzda kechishidan darak beradi. Bo'ston qishlog'i haqidagi tabiat tasviri qishloq chekkasidagi bir hovliga ko'chadi va xuddi bu hovlidagi sukunat, yolg'iz bir kishi

haqidagi fikrlar o'quvchida joy, qahramon va voqealar rivojiga qiziqish uyg'otadi. Bu jarayon kitobxonni navbatdagi voqealarni diqqat bilan kuzatish va sinchiklab o'qishga undaydi.

II BOB. Ijodkor estetik ideali va zamon-makon masalasi

Adabiyotda zamon va makon muammosi sujetning asosiy qismi yoki unsuri sifatida o'rganilmaydi. Asar voqealarida muhrlangan makon va zamon ruhi sujet voqealarini rivojlantiradi, jonlantiradi, asarning pafosini yanada oshiradi. Adabiyotshunos T.Boboyev badiiy makon va zamon muammosini shunday ta'riflaydi: "Realistik adabiy asar sujeti zanjiri xalqlarini tashkil etuvchi voqea-hodisalar muayyan bir makon va zamonda yuz berishi tabiiydir. Bu hayot va adabiyot qonunidir.

"Makon" – adabiy asar voqealari sodir bo'ladigan joy; zamon – asar voqealari yuz beradigan vaqt, davr, tarixning bir bo'lagi"¹

O'.Hoshimov "Ikki eshik orasi"da millat turmush tarzini uch tarixiy o'lchamda gavdalantiradi. Bu vaziyat bir tomondan, o'sish-o'zgarishlar hajmini to'liq tasavvurga sig'dirish imkonini bersa, ikkinchi tomondan, individual badiiy uslubni aniqlashtirishga yordamlashadi. Ayni chog'da muallif biografik chizgilarni ikkita mantiqiy joylashuvda beradi.

Asarda fojiaiviy Onalar obrazidan biri, shubhasiz, Bashoratdir. "Dunyoning ishlari" va "Ikki eshik orasi" asarlarida erkakshoda ayollarning bir nechitasi ishtirok etadi. Jumladan, Zebi, Bashorat, Parcha obrazlari bo'lib, ular ko'p jihatdan bir-biriga o'xshash. Adib ijtimoiy davr talabi tufayli erkak singari ishlashga majbur bo'lgan fojiaiviy ayollar qismatini ochadi. Zebi, Bashorat, Robia, Zuhralar traktor minib, kechani kecha, kunduzni kunduz demay dalalarda tinim bilmaydi. Nozik yelkalarga ulkan mas'uliyat oladi, natijada Bashorat shaxsiy hayotida juda ko'p yo'qotishlar qiladi. Fojiaiviy taqdirlar Bashorat shaxsiy hayotida juda ko'p yo'qotishlar qiladi. Fojiaiviy taqdirlar roman sahifalari bo'ylab kengayib, bo'rtib boradi. "Ikki eshik orasi" romani keng planli, keng tarmoqli, ko'povozli polifonik asar hisoblanadi.

Ona avvalo yaratuvchanligi bilan ulug'lanadi, sharaflanadi. Zero, adibning o'zi "Ayol" nomli publisistik maqolasida Onaning yaratuvchanlik qobiliyatini kurrai zaminga qiyoslab yozgan fikrlari bilan buni dalillaydi: "Ona mehrini

¹ RAsulov A. Ardoqli adib. Toshkent, Sharq, 2001, B.98.

to'sadigan qudrati mana shundadir. Ehtimol, ona yurt, ona tili, ona vatan degan iboralar mana shundan kelib chiqqandir. Ehtimol, ona –yer degan ibora shundan kelib chiqqandir. Shuning uchun ham men er kurrasini ayolga o'xshataman". Shu ma'noda, O'.Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romanini onalar jasorati haqida yozilgan betakror asar deyish mumkin. Albatta, bu baho romanning bitta qirrasi haqida aytilmoqda. "Ikki eshik orasi" romanida, hatto, eng kichik epizodik tasvirlarda ham onaning farzandiga bo'lgan cheksiz mehri va muhabbati yuqori pardalarda kuylanadi va ta'sirchan hikoya etiladi. Adabiyotshunos B.Sarimsoqov: "Shartlilik badiiylilikning mezoni sifatida asardagi bosh g'oyani to'laqonli ifodalashga xizmat qiladi. Haqiqiy badiiy asar ko'p g'oyali bo'ladi. Asardagi barcha g'oyalar, barcha unsurlar ana shu bosh g'oya atrofida markazlashib, uni yorqin va to'laqonli ifodalanishiga xizmat qiladilar" – deydi. Olim e'tirof etganidek, "Ikki eshik orasi" romanida ham bosh g'oya urushdan jabrlangan o'zbekning, uch avlidning fojiaiy qismatini keng planda ochib berishdir. Ammo asardagi juda ko'plab taqdirilar, maishiy lavhalar, psixologik tasvirlar, qistirma hikoyalar, epizodik obrazlar barcha-barchasi bosh g'oya atrofida birlashib, jipslashgan. Jumladan, asira ayol hikoyasi ham ana shunday badiiy maqsad yo'lida kiritilgan. Qora amma obrazi bilan g'amboda Ona haykali, Qora amma bilan noma'lum soldat monumental haykalining kiritilishi ham asardagi bosh g'oyaga juda uyqash keladi. Binobarin: "General haykallardan uzoqlarga ma'yus termilib o'tirgan Ona paydo bo'ldi. U katta-katta, sertomir qo'llarini tizzasiga qo'yib, boshini quyi solib o'tirar, ko'zlarida cheksiz mung... umid bor edi. Negadir vujudim seskanib ketdi. Axir bu... ammam-ku. Qora ammamning o'zi-ku! No'g'ayqo'rg'onga, uyiga borganda xuddi shu alpozda o'tirganini ko'rganman". Mazkur parcha ikkinchi kurs talabasi Muzaffar tilidan hikoya etiladi. Motamsaro Ona haykali aslida, ramziy ma'noda o'zbek Onalarining timsoli. Asar qahramoni Muzaffar g'amboda Ona haykali bilan Qora amma o'rtasidagi o'xshashliklarni juda nozik hissiyot bilan ilg'aydi. Boshini quyi solib, sertomir qo'llarini tizzasiga qo'yib, ko'zlariga mung bilan uzoqlarga tikilib o'tirgan Ona haykali aslida Qora amma taqdiriga ramziy ishora beradi. Qora amma o'g'li Kimsanni urush

tugaganiga yigirma yildan oshib ketsa ham kutaveradi. Zero, farzandi dog'ida kutaverib ado bo'lgan onaning ruhiy holatini shu bir kichik parchada ham kuzatishimiz mumkin: “- Bola-m! – Qulog'imning tagida yangragan faryoddan seskanim ketdim. – Onasining go'riga tushgan bola-a-am! – Ammam dadamning qo'lidan yulqinib chiqdi-yu, kalovlanib, yigit haykaliga talpindi. Yugurib borib haykalni quchoqladi. – Onasini dog'da qoldirib ketgan Kimsani-i-im! Jon bolam. Jonim bolam! – U haykalning kaskali boshidan quchoqlab o'pa boshladi. Ro'moli sirg'alib tushib, haykalning avtomatiga ilinib qoldi. Oppoq sochlari to'zg'ib ketdi”.

Zamon va Makon (keng ma'noda Fazo va Vaqt kategoriyalari badiiy adabiyotda ham muhim ahamiyatga ega. Biron-bir badiiy asar yo'qki, unda ifodalanayotgan voqea aniq bir zamon va makonda ro'y bermagan bo'lsin. Zamon va makonsiz asarni tasavvur etish mumkin emas. Unda qatnashayotgan personajlar esa qalamga olingan davr, muhit va joyning aniq vakili sifatida namoyon bo'ladi. Bu badiiylikning muhim shartlaridan biri bo'lib, hayotiylik va xalqchillik fazilatlarini ta'minlashga yordam beradi.

Badiiy asarda zamon va makon kategoriyasi yozuvchi dunyoqarashi hamda adabiy tafakkuri darajasi bilan chambarchas bog'liq holda namoyon bo'ladi. Adib o'zi qalamiga olayotgan davr hamda hudud to'g'risida yetarli ma'lumotga, tugal xulosaga ega bo'lishi kerak. Zamon va makonning mavhumligi kompozitsiyasining yaxlitligiga ham putur yetkazadi. Pyer Kornelning fikricha, har qanday badiiy asar voqelik, vaqt va joy birliklaridan tarkib topishi kerak. Uning aytishicha, san'atkor “imkon qadar vaqt birligiga erishishga harakat qilishi shart”.

Chindan ham, zamon va makon badiiy adabiyotning muhim estetik kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Chunki “har bir asar inson hayoti va tabiat olamining intihosi” ekan, unda aks etayotgan inson umrining ma'lum bir qismi va shu vaqt ichida hayot kechirgan joyi tasvirlanadi. San'atkorning sehrli qalami yordamida odam, tabiat va predmet bir nuqtada birlashadi, aniq zamon hamda makon ko'zgusida ularning bevosita va jonli qiyofasi namoyon bo'ladi. Buni san'atkor badiiy obrazlar orqali ifodalab beradi. Binobarin, badiiy adabiyotda ham

inson hayoti, tashqi olam ko'rinishlari muallifning ijodiy tafakkuri asosida qayta ishlanadi.

“Ikki eshik orasi” romanida zamon ham, makon ham aniq ko'zga tashlanadi. Vaqt shartli ravishda kecha va bugunga bo'linadi, ammo bu vaqt doirasida yuz bergan voqealar tartib bilan xronologik tarzda berilmaydi. Muzaffardan tashqari barcha hikoyachi-qahramonlar bugundan kechagi kuniga razm soladi, uni baholaydi, tegishli xulosa chiqaradi. Romanda qamrab olingan yarim asrlik Vaqtning qariyb 30 yili (1950-1980-yillar) bosh qahramo Muzaffar bilan birga harakat qiladi va o'sib boradi. Eng zich vaqt birligi ham ana shu Muzaffar hikoyalari tegishli. Yozuvchi uning romanda kechgan 32 yillik umrini uch bosqichga bo'lib beradi:

I bosqich: Kichkinto Muzaffar – 5 -12 yosh;

II bosqich: O'smir Muzaffar – 14 -17 yosh;

III bosqich: Yigit Muzaffar – 18-24 yosh.

O'tkir Hoshimov Muzaffar hayotini tasvirlashda “avtobiografik vaqt” usulidan foydalanadi. Bu usul yozuvchining asosiy g'oyaviy niyatini ifodalashga mos keladi. Chunki san'atkor diqqat markazida asosan urush allaqachon tugagan bo'lsa-da, hanuzgacha begunoh odamlarning umriga zavol bo'layotganligini ifodalash masalasi turadi. Bu g'oyaviy niyat urushdan keyin tug'ilgan, biroq uning aybi bilan umri xazon bo'lgan ikki yigit-qiz – Muzaffar va Munavvar obrazlari orqali ilgari suriladi. Avtobiografik vaqt usuli har ikkala qahramonning tug'ilganidan to Munavvarning o'limiyu uning ishqida yolg'iz o'tayotgan Muzaffarning azob-uqubatli kunlarini to'la qamrab oladi.

Romanda qamrab olingan umumiy vaqt birligi Muzaffar xarakteri bilan birgalikda o'sib, xarakatlanib boradi. Shu jihatdan uning hikoyalari xronologik uslubda bitilgan. U boshidan kechirgan, o'z ko'zi bilan ko'rgan voqealar real vaqt birligiga ega. Muzaffar 5 yoshdan to 32 yoshgacha bo'lgan 27 yillik voqealar shodasining eng yirik va qimmatli o'rinlarini tanlab oladi. Bevosita Muzaffarga tegishli Vaqt birligini quyidagi kichik bosqichlarga bo'lish mumkin:

1. Kichkintoy Muzaffar – 5-6 yosh (1951-1952 yillar);

2. 1-sinf o'quvchisi Muzaffar – 7 yosh (1953-yil);
3. 4-sinf o'quvchisi Muzaffar – 11-yosh (1957-yil);
4. 7-sinf o'quvchisi Muzaffar – 14 yosh (1960-yil);
5. 10-sinf o'quvchisi Muzaffar – 17 yosh (1963-yil);
6. Student Muzaffar (1963-1966-yillar);
7. Qurilish-montaj brigadasining boshlig'i Muzaffar (1966-1978-yillar).

Ko'rinadiki, adib qahramoni Muzaffarning 32 yillik hayotidan ko'pi bilan 10 yilini ajratib oladi. Buni “harakatdagi vaqt” deb atash mumkin. Qolgan 22 yil “harakatsiz vaqt” doirasiga kiradi. Bu davr ham qahramon hayotida izsiz ketmagam, albatta. Bu yillarda Muzaffar o'sdi, ulg'aydi, oq-qorani tanidi. Bu jonsiz vaqt yigitning xotira arxivida saqlanadi. O'quvchi uchun Muzaffarning taqdirida o'zgarish yasalgan vaqt muhim.

Zamon qamrovining kengligiga ko'ra “Ikki eshik orasi”ni “roman-panaroma” deb atash to'g'ri bo'ladi. Unda xalqimizning bir asrga tatigulik hayotii ko'rish mumkin. Romanning 49 bobidan (“Muqaddima” bilan “Xotima”ni ham qo'shdik – G.M.) o'rin olgan 63 ta hikoya (bo'limlarini ham hisoblaganda G.M.)ning 3 tasida 30-yillar, 28 tasida urush davri, 32 tasida urushdan keyingi 15-16 yil manzaralari jonlanadi. Demak, eng ko'p vaqt birligi urushdan keyingi yillarga to'g'ri keladi. Bu yozuvchi asarning kompozitsion markazini nazardan qochirmaganligini, g'oyaviy niyatining aniqligi isbotlaydi. Chindan ham O'.Hoshimovning asosiy g'oyaviy niyati urush degan kasofatning faqat o'z davrida emas, balki keyin ham odamlar boshiga qanday kulfatlar keltirganini ifodalashdan iborat edi. Shu ma'noda urushdan keyingi yillar voqealarini tasvirlashga bag'ishlangan Muzaffar, Munavvar, Olimjon va qisman Ra'no, Umar zakunchi hikoyalarida ham urush davrining aks sadosi eshitilib turadi.

Nasriy asar uchun vaqtning aniqligi muhim ahamiyatga ega. Shuni hisobga olgan O'.Hoshimov har bir hikoyada qahramonlar nutqi orqali aniq vaqtga ishora qiladi. Birona hikoya ham Zamon va Makon omilidan holi tasvirlanmaydi. Ularning hammasida voqea qachon, qayerda bo'lib o'tayotganligi aniq aytiladi.

“Ikki eshik orasi” – yirik ijtimoiy, ma’naviy-axloqiy roman. Asar uzoq davrlik voqealarni, ko’plab kishilar taqdiri, hayot yo’lin, xilma-xil ijtimoiy-axloqiy muammolarni o’z ichiga qamrab oladi. Roman voqealarining bir uchi 30-yillarning boshlariga, qishloqdagi kolxozlashtirish davri voqealariga borib tutashsa, ikkinchi uchi 70-yillarning oxiriga kelib taqaladi. Shunday bo’lsa-da, romanning markazida fashizmga qarshi olib borilgan urush davri, urush yillaridagi o’zbek qishlog’i hayoti, urush va inson, urushning kishilar taqdiriga ko’rsatgan chuqur ta’siri, ular qismatida, zurriyotida, dilida qoldirgan jarohatlari muammosi turadi. Yozuvchi ikkinchi jahon urushi kishilarimiz uchun zo’r sinov bo’lgani, bu sinov paytida o’zini kishisiga xos bo’lgan noyob fazilatlar favqulodda bir kuch bilan yuzaga chiqqani, qishloqlarimizdagi otashin vatanparvarlik, cheksiz muruvvat, sadoqat tuyg’ularini ilhom va ehtiros bilan qalamga oladi. O’sha sinov kezlarida faqat o’z jonini, manfaatini o’ylab, munofiqlik, xinoyat ko’chasiga kirgan ayrim kimsalar qilmishini qahr-g’azab bilan qoralaydi, ma’naviy inqirozini, fojiasini ochadi. Qahramonlar qismati vositasida yozuvchi yashashning ma’nosi, insonning insonlik sha’ni, burchi, mas’uliyati, e’tiqodli masalalarini ko’taradi, kitobxonni ular haqida o’ylashgam, bahsga chorlaydi. Qanday yashash va yashamaslik kerak, degan savol asarning yetakchi falsafasi darajasiga ko’tariladi. Bu o’git-falsafa personajlardan biri – ko’pni ko’rgan Orif oqsoqol tomonidan berilgan ikki eshik orasi to’g’risidagi xalqona hikmatda o’z yakunini topgan. U deydi “Bir xil odamlar bor: u eshikdan kirib bu eshikdan chiqib ketayotganida qo’lidan kelgancha savob ish qiladi. Hayot degan imoratga aqalli bitta g’isht qo’yib ketadi. Yana bir xillari bor: o’sha imoratdan aqalli bitta g’isht o’g’irlab ketgisi keladi. O’g’irlab-ku, hech qayoqqa borolmaydi, narigi eshik oldiga borganda baribir tashlab ketadi. Ikki orada imoratni buzgani qoladi...”. Muallif shular bilangina cheklanmaydi, bosqinchilik urushining insoniylikka, insoniyatga zid mohiyati, fashizm harbiy jinoyatining mudhish oqibatlar haqida cheksiz alam bilan yozadi. Binobarin, bu roman boshdan-oyoq urushning achchiq saboqlari orqali odamlarni hushyorlikka chaqiruvchi, umuman urushga qarshi qaratilgan asardir. Romanning muhim ijtimoiy, umuminsoniy, zamonaviy qimmat ham ana shunda.

Yozuvchi uzoq davrlik voqealarni, ko'plab insoniy taqdirlarni bosh qahramonning bir necha soatlik kechinmalari ichiga jo etadi. Shunisi xarakterliki, muallif voqealarga bevosita aralashmaydi, muxtasargina so'z boshidan keyin u bevosita ko'rinmaydi, so'z, ixtiyor butunasiga qahramonlarning o'zlariga beriladi. Qahramonlar esa o'z boshlaridan o'tganlarini o'zlari so'zlashga kirishadilar. Shu paytga qadar bizda asar voqealarini qahramon tilidan hikoya usuli bor edi. Bunda voqea ko'proq bir, goho ikki personaj tili, nigohi orqali berilar, ba'zan bir necha personaj boshidan o'tganlarini hikoya qilib berar edi. Bir emas, bir necha personajlar tilidan hikoya qilingan asarlarda har bir personaj sarguzashti ko'pincha mustaqil, tugal hikoya yoki qissa shaklini olar edi. "Ikki eshik orasi"da esa o'zgacha manzaraga duch kelamiz. Bir-ikki epizodni mustasno qilganda unda alohida mustaqil, tugal sarguzasht yo'q; asarda bir necha sarguzashtlar yondosh holda biri-biri bilan tutashgan, chirmashgan holda berilgan. O'nga yaqin har xil tabiatli, har xil yoshdagi personaj, buning ustida ular umr pog'onasining turli bosqichlarida turib sarguzashtlarini hikoya qiladilar. Ko'p o'rinda bir hodisa ikki yoki bir necha personaj nuqtai nazaridan hikoya qilinadi, baholanadi. Masalan, Ra'noning xiyonati ham uning o'zi, ham uni shu yo'lga boshlagan Umar zakunchi, ham Robiya tili, nuqtai nazaridan beriladi; bir hodisa uch shaxs nigohida uch xil talqin etiladi... Bu hol asarga o'ziga xos polifonik xususiyat, serjilo ma'no baxsh etadi, asar drammatizmini kuchaytiradi, o'quvchida hodisaga nisbatan qiziqishni oshiradi.

Ma'lumki, O'tkir Hoshimov ilk romani "Nur borki, soya bor..."da hayotning dolzarb problemalarini ko'rsatishga moyillik kuchli edi, shunga ko'ra uni shartli ravishda "problematik roman" deb atash mumkin; "Ikki eshik orasi"da esa odamlar taqdiri bilan qiziqish ustun, uni "taqdirlar romani" desa bo'ladi. Romandagi taqdirlar o'z navbatida kontseptual xarakterga ega. Yozuvchi qahramonlar taqdiri talqinida hamisha romandagi bosh kontsepsiyadan, ya'ni odamlar qismatidagi urush bilan aloqador jihatlardan kelib chiqib ish ko'radi. Umar zakunchi obrazini va boshqa ayrim personajlarni mustasno etganda, qolgan barcha qahramonlar qandaydir urush jafosini chekkan urush odamlaridir. Muzaffar

urush davri chigalliklari tufayli tirik yetimga aylanadi, ko'p jabr-sitamlarni boshdan kechiradi va pirovardida uning sevgi fojiasi ham urush keltirgan chigalliklarga borib taqaladi. Sevgilisi Munavvar urush qoldirgan ma'naviy jarohatlar qurboni bo'ladi. Tuqqan onasi Ra'no urush to'zonlari ichra dovdirab, yo'ldan toyib hayot so'qmoqlariga kiradi; boqqan onasi Robiya ko'ngil bergan yigitidan judo bo'lib tutingan tog'aga xotin, Muzaffarga esa o'gay ona bo'lib qoladi. "Qora amma" o'g'lining sevgilisini o'z inisiga unashtirishga, ikki o'g'li judo bo'lgan Oqsoqol esa o'z kelinini boshqa birovning nikohiga o'tkazishga majbur bo'ladi...

Roman muallifi ko'p o'rinlarda qahramonlarning g'oyat keskin, murakkab, chigal, mushkul daqiqalardagi ruhiy holatlarini mahorat bilan ifoda etadi. Ayniqsa, Oqsoqolning olomon oldida kelinini ko'ngil qo'ygan nogiron yigitga nikohlab berish lavhasi, o'sha murakkab lahzalardagi Oqsoqolning g'oyat tig'iz, ruhiy holati; Komil tabibning Robiyaga jangda halok bo'lgan ikki ko'ngil rozini izhor etishdagi dramatik kechinmalari, jangda yarador bo'lib qaytgan Shomurodning sevikli go'zal xotini xiyonatidan voqif bo'lgan kezlardagi iztiroblari, Ra'nodagi ikkilanish holatlari, so'ng aldanib chekkan alam va pushaymonlari, adadsiz qalb qiynoqlari – bunga o'xshash lavhalar tasviri kitobxonni larzaga soladi.

Asar muallifi qahramonlarning ruhiy dramasini ochish biln barobar ularning qalb boyligi va sahovatini ham ko'rsatadi. Bir talay personajlar tabiati va xatti-harakatidagi mehnatkash xalqimiz xarakteriga xos fazilatlar, o'zbek xalqi turmush tarzi yorqin ifodasini topgan. Xususan, Husan дума, Oqsoqol, Komil tabib obrazlari, ularning oilasidagi tartibotlar o'zbek turmush tarzining ko'p yaxshi an'analari ko'z-ko'z qilib turadi. Bu muhim qirrasini ifodalaydi: Orif oqsoqol – rahbar xodim, Husan дума – tadbirkor, ishbilarmon dehqon, Komil tabib xalq ziyolisi... Orif oqsoqol mehnatkash xalq orasidan chiqqan, butun hayotini shu mehnatkash xalq manfaatlari yo'liga tikka, kechayu kunduz shu mehnat ahli tashvishi bilan nafas oluvchi, bir oz dag'al, shang'i ko'rinsada, nihoyatda yoqimtoy chol. Unda ajib bir joziba bor. Qishloq ahli uni nihoyatda hurmat qiladi, hamma unga talpinadi, uning har bir so'zi el uchun qonun; yo'q, buyruq emas qonun!

Mehnat ahli Oqsoqolning so'zini, ishini o'z so'zi, o'z ishi deb biladi. Chunki Oqsoqol hech qachon elni aldamagan, faqat uning g'omini yegan, manfaatini degan... Shunisi muhimki, Oqsoqol vaziyat taqozosi bilan mansabdan – raislikdan chetlatilganda ham bir daqiqa bo'lsin, el-yurtdan uzoqlashmaydi, mansabdan ketgani uchun aslo o'kinmaydi, qishloq ahli esa hamon uni o'zlarining ma'naviy rahnamosi deb biladi. Bu odam oilasidagi og'ir ko'rguliklar yuz berganda boshga tushgan musibatlar tufayli dil-dildan o'rtangani holda, baribir o'zgalar baxti, oromini o'ylab ish ko'radi.

Yozuvchining mahorati, san'ati faqat jonli, hayotiy milliy xarakterlar yaratish, qahramonlar tabiatiga xos insoniy fazilatlarni, dilidagi tashvish, tug'yonlarni mohirona ifoda etishdagina emas, xarakterlar ruhiyatidagi o'ta nozik, tushunish, tushuntirish mushkil bo'lgan murakkab kechimlar silsilasi ta'sirida ham namoyon bo'ladi. Birgina misol: Muzaffar oradan o'n yil o'tsa-da, halok bo'lgan sevgilisi Munavvar yodi bilan tanho yashaydi, yoshi bir joyga borib qolgan bo'lsa-da, uylanmay, boshqa birovga ko'ngil qo'yolmay qariyalarni xunob qiladi. Onasining o'limi xabarini eshitganda iztirob chekadi, ta'ziasiga otlanadi, ammo onasi xonadoniga yaqinlashganda o'lim xabari tufayli dastlab ko'nglida uyg'ongan farzandlik mehri so'nib, ortga qaytishni o'ylab qoladi...

Xo'sh, nima uchun? Muzaffarning uylanmay bo'ydoq yurishi tarkidunyochilik emasmi? Onaga bo'lgan sovuq munosabati toshbag'irlik oqibatimi? Aslo! Gap shundaki, Muzaffar halol, vijdonli, qalloblikni aslo ko'tarolmaydigan yigit, u farzand sifatida har holda onasini unutolmaydi, biroq ona xiyonati, bu xiyonat tufayli otasi hamda o'zining hayoti alg'ov-dalg'ov bo'lib ketganligini ham sira esdan chiqarolmaydi. Buning uchun biz Muzaffarni ko'nglida kek saqlaydigan farzand deya olmaymiz.

Muzaffar shaxsiy hayotda baxtsiz, omadsiz. Ammo uni ojiz-notanov deya olmaymiz. Chunki Muzaffar aqlli, andishali farzand sifatida onaga qarshi borolmaydi. Buning ustiga onaning holi ma'lum, u o'zi yo'l qo'ygan gunoh jabrini tora-torta alam-iztiroblar, armoni pushaymonlar olovida kuyib ado'i tamom bo'lgan...

Adib ijodida Ona obraziga berilgan dastlabki chizgilar 1966-yilda yaratilgan "Odamlar nima derkin?" qissasidan boshlandi. Ushbu asarda xarakter evolyutsiyasi ikkinchi planga tushib qolsa-da, ijodiy tajribadan o'tayotgan ikki Ona qiyofasi voqealar tizimiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Garchand, tuqqan Ona va o'gay Ona orasida konflikt kelib chiqmasa-da, muallif voqealarni ona-bola munosabatlariga bog'liq holda rivojlantiradi. Bundan ko'rinadiki, Ona o'gay bo'lgan taqdirda ham chin onalik mehri unga begona emas, lekin, afsuski, tuqqan ona o'rnini bosa olmaydi. Muallif bu o'rinda Onani murakkab hayot tashvishlariga bardosh bera oladigan, og'ir muammolarni yechishga qodir ma'naviy ideal tarzida ulug'laydi. Muammoning nisbatan kengroq talqiniga "Odam ovozi" hikoyasida duch kelamiz. Asar qahramoni Mastura xola oddiy o'zbek ayoli. U mustahkam imon, barqaror e'tiqod egasi. Personaj o'ziga xos turmush tarzi, hayot mazmuni sadoqat, vafo hamda sabr-toqat singari sodda, biroq ulug'vor tushunchalarni tarannum etishga xizmat qiladi.

Ona obrazi yaratilishidagi navbatdagi bosqich 1972-yilda yozilgan "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasiga borib taqaladi. Aslida bu hikoyani inson ruhiyatining lirik inkishofi sifatida baholash mumkin. Ona timsoli har bir adib izlanishlariga alohida mehr, chinakam ehtirom orqali kirib keladi. Bu ehtirom muallifning o'zidagi fazilatlar bilan tutashadi. O'.Hoshimov ijodidagi leytmotiv ona obrazi ekanligi bevosita muallif avtibiografiyasi bilan uyg'unlashib ketadi. Bu holat, birinchidan, timsolning falsafiy jihatdan kengayishiga yordam bersa, ikkinchidan, xarakter ruhiyatining batafsil yoritilishiga zamin hozirlaydi.

Ma'lumki, tasvir ruhiyati ijodkor fitratida badiiy konsepsiya sifatida namoyon bo'lishining aniq-hissiy yaxlitlikda uyushadigan ifoda xususiyatlarini dalolatidir. Adabiy talqin hamda hayot haqiqati muvozanatini ta'minlaydigan estetik markazda tagma'noga daxldor omillar matnning ichki va tashqi mundarijasini belgilab beradi. Qadimgi yunon faylasufi Aristotel "Har bir jismning hajmi uning mohiyati bilan bilan belgilanadi", -deya e'tirof etgan edi. Muallif shakl hamda mazmun vobastaligini tizimi kompozitsiya xalqasi asosan ma'no maydoni va formal darajaning o'zaro muvofiqlashuvi estetik markazda mantiqiy joylashuvi tartibini to'g'ri baholaydi. Adabiyotshunos Izzat Sulton "Adabiyot nazariyasi" darsligida "asarning turli qismlari orasidagi mutanosiblik, komponentlararo nisbat" mavjud bo'lishi kompozitsiya shakllanishining muhim omili ekanligiga e'tibor qaratadi. Binobarin, yozuvchi nuqtai nazari, hayotiy materialga ijodiy munosabati, bayon usuli o'ziga xosligi, bo'laklarni estetik markazga yig'ish va o'rniga qo'yish mazkur atamaning murakkab va keng qamrovli mantiqini dalillaydi.

O'.Hoshimov asarlarining ijtimoiy-ma'naviy mohiyati ham ijodiy-estetik tamoyillarga asoslanadi. Agar A. Qahhor qahramonlari kurashchan sifatlar, keskin tabiati bilan ajralib tursa, O'.Hoshimov asarlarida xarakter tadriji tipik manzaralarga bog'liq holda yoritiladi. Ma'lumki, yozuvchi muvaffaqiyati uning adabiyotga olib kirgan qahramonlari bilan o'lchanadi. Shu jihatdan olib qaraganda Gavhar ("Shamollar esaveradi"), Muqaddam ("Bahor qaytmaydi") obrazlari O'.Hoshimovning o'ziga xos muvaffaqiyatlaridir. Albatta, obraz biron bir muhim hayotiy ma'noga ega bo'lsa va uslubiy badiiy qimmatni tashisagina adabiyotimizni boyita oladi. Darhaqiqat, adib ijodi ma'naviy-psixologik talqin teranligi, xarakter yaratishning tipik va aniqligi bilan ajralib turadi. O'z-o'zidan ayonki, ijodkorning o'ziga xos uslubi voqelikni badiiy idrok etish, badiiy tafsilotlar va tasvir vositalaridan foydalanish darajasi orqali namoyon bo'ladi. Zero, adabiy dunyoqarashning shakllanishini, bir tomondan, falsafiy idrokning badiiyatida namoyon bo'lishi belgilaydi. Shu ma'noda, har bir asar muallif nuqtai nazaridaning umumlashgan, aniqlashgan hamda muayyan tizimga solingan shamoyili

hisoblanadi. O'.Hoshimov badiiy olami bir qarashda rang-barang va murakkabdek taassurot uyg'otadi. Biroq, adib qahramonlari tadrijiga nazar solinsa, ular orasida mantiqiy bog'liklik mavjud ekanligi kuzatiladi. Obraz tabiyatini ochib berishga yo'naltirilgan badiiy chizgilar asardan-asarga teranlashib, mukammallashib borishi seziladi. Tasvir va ifodadagi sinchkovlik, xarakter takomilidagi tabiiylik nozik iqtidor egasining adabiy mahoratidan darak beradi. Yuqorida Ona timsoli adibning "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasida ilk bor tajribadan o'tganini aytdik. O'.Hoshimov "Dunyoning ishlari" qissasida Ona qiyofasining jozibali, hayotiy va mukammallashtirilgan shaklini yaratdi. Adibning avvalgi hikoya va qissalaridan farqli o'laroq mazkur asarda Ona timsoli mustaqil qahramon markaziy chiziqni tashkil etadi. Muallif "Dunyoning ishlari"da ham o'z an'anasiga sodiq qoladi; obraz tabiatini yoritishda ta'rif-tavsiflardan o'zini tiyadi, voqealar tadrijini izchil davom ettirmaydi. Milliy xarakter o'z mohiyatini ba'zan nutqi, ba'zan xatti-harakatlari bilan mantiqan dalillay boradi. Bu holat tafsillar, lirik bo'yoqdorlik hamda falsafiy mushohadakorlik, publisistik jo'shqinlikning qorishiq tabiati orqali namoyon bo'ladi. Ayni asarda badiiy mantiq uyg'unligining ko'zga tashlanmasligi xotiralar asosiga qurilganligi bilan izohlanadi.

Yozuvchi ma'naviy-axloqiy qiyofa qirralarini umumlashtirishni "Ikki eshik orasi" hamda "Tushda kechgan umrlar" romanlarida ham davom ettiradi. Bu ikki yirik polotno bir-biridan badiiy shakl va uslub nuqtai nazaridan tafovutlansa-da, g'oyaviy munosabat mushtarakligiga asoslanadi. "Ikki eshik orasi" asari uslubiy jihatdan o'zbek adabiyotida o'ziga xos kompozitsion yaxlitlikka ega. Qahramonlar tabiati ijtimoiy tabaqa, fe'l-atvor, qiziqish va manfaat nuqtai nazaridan bir-biridan farq qilsa ham, qo'yilgan muammo-muddao-maqсадga bo'ysunishi jihatdan bir-biriga o'xshaydi.

Yozuvchi ijodida shunday asarlar bo'ladiki, uni yozish jarayoni boshqalarga qaraganda juda og'ir kechadi. Buning sabablarini turlicha izohlash mumkin. Masalan, yozilajak asar uchun material to'plash, asarni boshlab olish, qahramon tanlash, muammo qo'ya bilish, zarur yechimni topishning qiyinligi va hokazo. Tajribali, malakali ijodkorlar ham biron-bir asarini yaratishda ana shunday

qiyinchilikka uchrashi mumkin. Masalan, O'.Hoshimov shoir T.Ubaydullo bilan birga bo'lgan suhbatda meni eng qiynagan kitob "Ikki eshik orasi" romani bo'ldi, deydi. Vaholanki, o'tgan asrning 80-yillari O'.Hoshimov ijodining eng gullagan davri edi. Bu paytgacha u bitta roman, 7 ta qissa, o'nlab hikoya va dramalar yaratgan, o'zbek, rus, tojik va boshqa tillarda 30 ga yaqin kitoblari bosilib chiqqan tajribali va sermahsul ijodkor edi. Adibning bu kitobni yozishda qiynalganligining sababi esa uning avvalgilariga qaraganda boshqacha ruhda, boshqa sistemadagi asar bo'lishiga intilishi edi. Asar uchun tanlangan mavzu va muammo g'oyatda keng hamda zalvorli bo'lib, O'.Hoshimov unda urush nomli kasofat odamlarning boshiga qancha kulfat solishi mumkinligini yangicha, ayni paytda, qiziqarli badiiy aks ettirishni niyat qilgan edi.

Ma'lumki, urush mavzusida juda ko'p asarlar yozilgan. Sirtidan qaraganda, hama gap aytib bo'lingandek tuyuladi. Shuning uchun O'.Hoshimov bu eski muammoga yangicha yondashish yo'llarini izladi. Buning uchun bu asar loyihasini butunlay yangicha tayyorlashi kerak edi. Bu jarayon adibni ko'p o'ylantirdi.

Aslida mavzu aniqlangan, muammo qo'yilgan, kerakli qahramonlar ham tanlangan. Gap faqat o'tirib yozishda qoldi. "Menda asar yaratish jarayoni juda samarali bo'ladi, - deydi O'.Hoshimov biz bilan suhbatda. – Bir o'tirganimda juda tez ishlayman. Asarni yoza boshlagan paytimda birov meni ko'tarma kran bilan ham surib ololmaydi". Lekin ushbu romanni yozish oson kechmadi. Sababi unda qo'yilgan muammo ko'lamining kengligi, murakkabligi, og'irligi, ya'ni "urush faqat janggohda yurgan odamlarni o'ldirish bilan cheklanmadi, front chizig'idan uzoqqa yurib mehnat qilayotgan odamlarni o'ldirish bilan ham cheklanmadi. Urush o'zi tugaganidan keyin tug'ilgan begunoh odamlarning ham umriga zavol bo'ldi degan maqsadni ochish uchun katta masshtabli asar kerak ekan"ligida edi.

Bu g'oyaviy niyatni bitta roman hajmiga sig'dirish juda qiyin edi. Shuni hisobga olib, "men boshida bu asar trilogiya bo'lishi kerak deb o'ylagan edim. Birinchi kitob urushgacha bo'lgan, ya'ni kolxozlashtirish davrini o'z ichiga olib, o'sha Orif oqsoqol, Husan Dumalar faoliyatini qamrab olishi kerak edi. Ikkinchisi Ikkinchi jahon urushi davrini, 3-jildi Muzaffar bilan Munavvar taqdirlarini

tasvirlashga bag'ishlanishi mo'ljallangan edi. Keyin bu niyatimdan qaytdim. Chunki bunday qilingan asar, birinchidan, ancha cho'zilib ketardi; ikkinchidan, an'anaviy usulda, zerikarlimi, ya'ni men uchun zerikarli tuyulgandek bo'lgan edi. Xullas, uchala davrni bitta kitobga sig'dirishga harakat qildim. Buning uchun yangicha usul, yangicha ifoda shaklini topishga urindim" (o'zimizning suhbatdan). Ana shu yangicha usul, yangicha ifoda shakli" asarning kompozitsion qurilishida yaqqol ko'rinadi.

"Ikki eshik orasi" romanining arxitextonikasi nihoyatda original va o'ziga xos. "Muqaddima" va "Xotima"dan tashqari 7qism, 47 bobdan tashkil topgan bu asar xuddi 49 xonadan ("Muqaddima" bilan "Xotima"ni qo'shganda) iborat 7 qavatli muhtasham imoratga o'xshaydi. Bu bino loyihasining o'ziga xosligi shundaki, odatdagi uylardan farqli o'laroq, pastdan yuqoriga qarab kengayib boradi. Agar 1-qavat, 2, 2-qavat 1 xonadan iborat bo'lsa, 6-qavatga 10, 7-qavatga 16 ta xona joylashtirilgan (qism va boblar nazarda tutilyapti). Yuqori qavatlarda yukning og'irlashganligi va hajmning kengayganligi bilan quyi qavatlar zarar ko'rmaydi. Aksincha, yozuvchi-arxitektor loyihani shu qadar sinchkovlik va mahorat bilan chizganki, fizik atama bilan ifodalaganda, bino (asar)ning solishtirma og'irligi (g'oyaviy yuki) barcha qavatlarga baravar taqsimlangan. Natijada, binoning muvozanati birday saqlanadi.

Binodagi mavjud 49 xonaning 9 tasida hikoyachi-qahramonlar yashaydi, qolgan 40 tasida boshqa personajlar istiqomat qiladilar. Asarda nomi tilga olingan va voqeada ozgina bo'lsa-da ishtirok etuvchi personajlar soni 55 tadan ortadi. Ommaviy sahnalar (masalan, to'y, kolxozchilar yig'ilishi, vokzal)da qatnashgalari bu hisobga kirmaydi. Ularni ham qo'shsak, roman syujetida yuzdan ziyod odam qatnashadi. Yozuvchining mahorati shundaki, personajlarning birontasi ham muallif e'tiboridan chetda qolmaydi, xira yoki mavhum chizilmagan, hech biri o'quvchida chala tasavvur tug'dirmaydi. Aksincha, har bir personaj katta-kichikligidan qat'i nazar, o'z xarakteri, qiyofasi, ovozi, qilig'iga ega, ya'ni ular shaxs sifatida shakllangan jonli odamlardir. Asar makrostrukturasida har bir obrazning aniq o'rni, bajaradigan vazifasi, ko'taradigan yuki bor.

Fikrimizni isbotlash uchun birgina betonchi Safar aka obrazini olib ko'raylik. U butun asar davomida atigi bir marta – "Muqaddima yoki eng avvalgi bob"da ko'rinadi, xolos. Qurilish-montaj brigadasining boshlig'i Muzaffar Shomurodov qo'lida ishlaydigan Safar aka "ayiqdak lapanglab" yurishi bilangina emas, balki rostgo'yligi, ochiq ko'ngilligi, odamshavandaligi, beg'ubor qo'rsligi, ko'nglidagi norozoligini yashirmay ayta olishi bilan roman oxirigacha ham o'quvchi esidan chiqmaydi. Mabodo, Safar aka obrazi Muzaffar hikoyasidan chiqarib tashlansa, nafaqat hikoyachi-qahramonning, balki boshqarma boshlig'i Shavkat Qudratovich, payvandchi Ikrom akaning gap-so'zlari, xatti-harakatlari o'zaro uyg'unlashib, zilziladan keyingi Toshkentning qayta bunyod etilish jarayonini, bu mehnat jabhasida kimning qanday ishtirok etayotganligi, ijtimoiy muhitni, odamlarning o'zaro munosabatini ko'rsatishga ham yordam beradi. Binobarin, Safar aka va u singari kichik obrazlar ham (masalan, Ikrom aka, Ilhom samovarchi, Kozim soldat, Parcha opa, brigadir Quvish aka, student Gulya, asira ayol kabilar) "Ikki eshik orasi" romanining kompozitsiyasi va syujet qurilishida mustahkam o'rin tutadi. Mabodo ular chiqarib yuborilsa, asarning kompozitsion yaxlitligiga jiddiy putur yetadi.

Asar kompozitsion qurilishining yana bir o'ziga xosligi shundaki, go'yo bu binoning o'rtasidan yo'lak ochilib, ikki tomoniga eshik o'rnatilgan: uning bir tomonidan kirilib, ikkinchi tomonidan chiqiladi. Orqaga qaytish yo'q. Bu yo'lakdan hamma xonadonlarga bimalol kirib chiqish mumkin. Loyiha shu qadar qulay tuzilganki, ikki eshik orasidagi xonadonlar bir-biriga mutlaqo xalaqit bermaydi, aksincha, bir-birining holidan xabar olib, o'zaro muloqot qilib turish uchun imkoniyat yaratilgan. Xonadon sohiblarining har biri o'ziga xos xarakterga, mavqega, o'z hayot yo'li va taqdiriga ega. Birining taqdiri ikkinchisidikiga mutlaqo o'xshamaydi. Shunisi muhimki, bino (asar)da yashovchi barcha aholi bir-birini juda yaxshi biladi, qismatidan, yashash tarzidan, turmush darajasidan ogoh; iloji boricha, qo'shnisining yaxshi tomonlarini oshirib, yomonini yashirib, ertangi kunidan umid qilib yashaydi. Xuddi mana shu fazilatlarini hisobga olgan taniqli adabiyotshunos U.Normatov boshqa asarlardan farqli o'laroq, uni "taqdirlar

romani” deb ataydi. Chunki ”Ikki eshik orasi” da odamlar taqdiri bilan qiziqish ustun. Romandagi taqdirlar, o’z navbatida, konseptual xarakterga ega. Yozuvchi qahramonlar taqdiri talqinida hamisha romandagi bosh kontsepsiyadan, ya’ni odamlar qismatidagi urush bilan aloqador jihatlardan kelib chiqib ish ko’radi” – deb yozadi olim. Binobarin O’.Hoshimovning ”Ikki eshik orasi” romani kompozitsion qurilishi jihatdan o’ziga xos kashfiyotdir. Kashfiyotning siri esa asardagi kompozitsion butunlikni asar qahramonlari – onalar qiyofasi birlashtirib turadi.

Rustam urush odami, urush qurboni. Yozuvchi Rustam sarguzashtlari orqali afg’on urushi lavhalarini butun dahshati bilan bor holicha ko’rsatadi. Afg’on urushi qatnashchilarning guvohlik berishlaricha, jang lavhalari bamisoli jangchi ko’zi bilan ko’rib, qalbdan qog’ozga tushirilganday chiqqan. Ayni paytda roman inson shaxsi, qalbi, ruhiyatining davlat, tuzum, ijtimoiy afkura, hatto din, siyosatga bo’ysunmaydigan g’aroyib jihatlarini talqin etish bobida ham jiddiy yangilik bo’ldi. Asardagi urush ifodasi, talqini bu jihatdan xarakterli. Urush talqini romanda tamomila o’zgacha. Avvalgi urush haqidagi asarlardan farqli o’laroq, bu yerda qaraam-qarshi kuchlarni do’stu dushmanga, oqu qoraga, ”biznikilar” va ”raqiblar”ga ajratish yo’q; bu yerda g’olibu mag’lublar, qahramonlaru noqahramonlar yo’q. Faqat urush qurbonlari, tuzum, mafkuraviy ayirma, raqobat jabrdiydalari bo’lmish begunoh insonlar bor, xolos. Urush har ikki tomon uchun ham o’lim, halokat, vayronagarchilik, judolik, musibat, tandagi, qalblardagi jarohat, dahshat – fojia! Yozuvchi faqat afg’on urushi emas, Ikkinchi jahon urushi hodisalariga ham shu xilda yangicha yondoshadi. Romanda shunday epizod bor: oldingi marraga bir haftacha ovqat kelmagan. Oldinda kartoshka dalasi bor. Ukrain yigit Bondarenko bilan soddadil qozoq jangchi kartoshka kavlab kelishga boradilar. Quyuq tuman ichida ular dushmanga – nemis jangchisiga duch keladilar. U ham ochlikdan kartoshka kavlagani kelgan. Nemis ruschani bilarkan. Ular gurunglashib qoladilar. Gapdan gap chiqib nemis jangchisi urush joniga tekkanini, uyini, uchta bolasini sog’inganini aytadi, qozoq esa sakkizta bolasi borligini, kolxozda ”molshi” bo’lib ishlashini aytadi. Bondarenko onasini sog’inib ketganini

gapiradi. Bodarenko onasini sog'inib ketganini gapiradi. Qisqasi, ashaddiy "dushmanlar" raqiblikni unutib, bir-birlari ilan hasratlashib, so'ng nemis u yoqqa, qozoq bilan ukrain bu yoqqa – o'z yo'liga ketaveradi.

Sho'ro hokimiyati yillarida adabiyotda masalani bu tarzda qo'yish aslo mumkin emas edi. Bunday talqin burjua patsifizmi deb qoralangan bo'lardi.

Romandagi yana bir holatni, aniqrog'i Komissarning umr yo'ldoshi Nazira talqini ham eslaylik. Komissar bilan Nazira ikkisi ikki olam. Komissar mustabid tuzumning, hukmron mafkuraning chin odami, tuzum yetishtirgan "siyosiy hushyorlik", "yovuzlik", shafqatsizlik timsoli. Nazira esa nafaqat, poklik, beozorlik ramzi. U – oilada yaxshi beka, erining vafodor umr yo'ldoshi, bolalarining mehribon onasi. Bu mushtipar ayol erining ishlariga aslo aralashmaydi. Yovuz, shafqatsiz odam bilan shunday beozor, munis ayolning bir yostiqa bosh qo'yib hech kim bilan olishishni istamagani kabi o'limi payti ham osoyishta – beozorgina jon taslim etadi... Inson tabiati va ruhiyatining hech qanaqa qoliplarga sig'maydigan bu xildagi shevalari ifodasi o'zbek milliy adabiyotida XX asrning oxirlariga kelib urf bo'la boshladi. Holbuki, hayotning o'zida bunaqa g'aroyib insoniy munosabatlar hamma davrlarda bo'lgan. Shoir aytmoqchi, azaldan ko'p hollarda poklik, nafosat bilan dag'allik – xunuklik yonma-yon yashashga majbur!

Ma'lumki, har qanday salmoqdor, ezgu g'oya san'atkorona ifodasini topgan taqdirdagina qudratli kuch kasb etadi, asar g'oyasi esa o'quvchi qalbini asir etadigan yaxlit sirli-sehrli tasvir ohangi pafosga aylanadi. "Tushda kechgan umrlar" romani "Koz o'lim to'shagida yotgan" bemorga o'xshaydi" so'zlari bilan boshlanadi. Ilk jumladagi mana shu ma'yus, mungli ohang asar davomida tovlanib, goh sokin, goh shiddatli tus olib o'quvchining vujud-vujudini qamrab oladi. Asar qahramoni qismati boshdagi o'sha mungli so'zlar bilan intihosiga yetadi. "Kuz o'lim to'shagida yotgan bemorga o'xshaydi" jumlasini faqat qahramon qismatiga boshdagi o'sha mungli so'zlar bilan intihosiga yetadi. "Kuz o'lim to'shagida yotgan bemorga o'xshaydi" jumlasini faqat qahramon qismatigagina emas, asarda aks etgan davr, muhit, jamiyatga ham dahldor – darhaqiqat o'sha yillari jamiyat

bamisoli o'lim to'shagida yotgan bemor kabi talvasada. O'zbek adabiyotida bu qadar hazrat Navoiyning eng hazin, mungli dostoni "Layli va Majnun"ni yodga soladi. Dostonni o'qiyotib kitobxon Layli bilan Majnun bu foniyl dunyodan baxtini topolmasligini, cheksiz g'am-anduhlardan faqat o'lib qutilishlari mumkinligini his etib turadi.

UMUMIY XULOSALAR

O'tkir Hoshimov asarlari shakl va mazmun jihatdan rang-barang. Adib asarlarida, ayniqsa, Ona obrazining badiiy talqini o'ziga xosligi va badiiy teranligi bilan ajralib turadi. Adib ijodini o'rganish natijasida Ona siymosining asardan asarga, janrdan janrga, obrazdan obrazga tomon mukammallashib, badiiy talqini chuqurlashib borishini kuzatish quyidagi umumiy nazariy xulosalarga olib keldi:

1. O'tkir Hoshimov ijodida teran lirizm epik sarhadlarning aniq yo'nalishini belgilashi, ayni paytda rivoya usuli ruhiy tahlilni maksimal ifodaga yaqinlashtiradi, umuminsoniy g'oyalar va ular ifodasining millat sajiyasidagi mezoni lirik ifoda hamda epik ko'lamni belgilaydi. Adib asarlari tahlilining estetik "yuqumliligi" ham aynan ifoda va tasvirda muvozanat-me'yorga qat'iy rioya qilish bilan bog'liq. Bu me'yor-munosabat ijodkor fitratidan davr umumlashmasiga o'tishda zinapoya vazifasini bajaradi;

2. Barcha zamonlar uchun mushtarak muammolar talqini san'atkor qalb prizmasida o'ziga xos tarzda lirizm zalvori va epik ko'lamdorlik bilan uyg'unlashib bir-birini izohlaydi, to'ldiradi, O'tkir Hoshimov asarlarida muallif "men"i shaklidagi epik bayon usuli, nogahoniy tarzda paydo bo'ladigan kechinma mushohadaning erkinligi va kengligini ta'minlaydi. Kichik va katta polotnodagi asarlarida xotira-hayol, monolog-muhokama kabi tasviriy vosita usullari ona qiyofasini yorqinroq ko'rsatishga xizmat qiladi;

3. O'tkir Hoshimov asarlarida xarakter va milliylik bir-biriga o'tib turtadi. To'g'rirog'i, mazkur ikki tushuncha hayotni poetik tadqiq etishning muhim ikki qirrasini sifatida o'zaro izohlangan, dalillangan hamda tartibga solingan badiiylik darajasini yuzaga keltiradi, ona timsolining xronologik takomili shakllangan e'tiqod barqarorligi, ma'naviy muhit ta'siri va axloqiy tamoyillar mushtarakligini tasvir markaziga ko'taradi;

4. O'tkir Hoshimov asarlarida badiiy makon va zamon jihatdan o'zbek millatining XX asr 30-yillaridan to shu kungacha bo'lgan davrini o'z ichiga olgan, aynan zamon tushunchasi uning ijodida keng masshtabga ega - o'tmish,

bugun va kelajak orasidagi dinamik o'zgarishlarni qamrab oladi. Timsolning badiiy vaqtga munosabati xotira, kundalik, monolog, dialog, nutqiy-ekspressiv vositalar yordamida badiiylashadi;

5. Adib asarlarida kuzatiladigan individual xususiyatlardan biri tarixiy koloritning cheklanganligida namoyon bo'ladi. Unga ko'ra, ijodkor aksar hollarda xronotop harakatlanish chiziqlarini badiiylashtirishga intiladi, bu bir tomondan, davrning to'liq manzaralarini chizish imkonini bersa, ikkinchi tomondan, ijodiy yondashuv erkinligini saqlashga yo'l ochadi. Mazkur holatda syujet tarixiy aniqlikni birlamchi o'ringa olib chiqmaydi, aksincha, umuminsoniy qadriyatlar hamda o'zaro munosabat zalvori yetakchi mavqe kasb etadi;

6. Yozuvchi talqini markazida doimo ona siymosi turadi, mazkur xarakter asardan asarga teranlashib, murakkablashib hamda mukammallashib boradi; ona siymosi janrdan janrga (publistitsik maqoladan hikoyaga, qissadan romanda) tomon, obrazdan obrazga tomon quyuqlashib boradi. (Habiba buvi ("Dunyoning ishlari") – Otinoyi ("O'zbeklar") – Lazakat xola ("Ikki eshik orasi") kabi tadrijiy badiiy evoyutsiyani kuzatish mumkin;

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. O'zbekiston, -T., 1997
2. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. O'zbekiston
3. Adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik. 1-tom. Adabiy asar. T., Fan 1978.
4. N.Xudoyberganov Ishonch. T. Adabiyot va san'at nashriyoti. T., 1978
5. A.Rahimov Hayot haqiqatini izlab T. «Fan», 1989
6. Nosirov U. Ijodkor shaxs, badiiy uslub, avtor obrazi. T., 1982
11. [www. tdpu. uz](http://www.tdpu.uz)
12. [www. pedagog. uz](http://www.pedagog.uz)
13. [www. Ziyonet. uz](http://www.Ziyonet.uz)
14. [www. edu. uz](http://www.edu.uz)
15. [tdpu-INTRANET. Ped](#)
16. [www.nutq.intal. Uz](http://www.nutq.intal.Uz)